INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI KASB TANLASH ISHIGA TAYYORLASH

Shodiyev Narziqul, O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti pedagogika kafedrasi professori
e-mail: n_shodiyev@uzfi.uz
Mirzoyeva Nigora Shavkatjonovna, O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti pedagogika kafedrasi assistenti,
e-mail: n_mirzoyeva@uzfi.uz
Hamidova Laylo Kamildjonovna, O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti pedagogika kafedrasi magistranti

Annotatsiya. maqolada kasbiy-pedagogik yo‘naltirilganlik asosida “Tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi” fanini tabiiy-ilmiy fanlar bilan integratsiyasi yordamida talabalarni kasb tanlash ishiga tayyorlash bilan bog‘liq masalalar qaralgan.

Kalit so‘zlar: Kasbiy yo‘naltirilganlik, talaba, integratsiya, kasb tanlash, tayyorgarlik, fan.

ПОДГОТОВКА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К РАБОТЕ ПО ВЫБОРУ ПРОФЕССИИ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

Аннотатцияю В работе рассматриваются вопросы, связанные с подготовкой студентов к работе по профориентации путем интеграции «Природоведения и методики его преподавания» с естественно-научными предметами на основе профессионально-педагогической направленности.

Ключевые слова: профессионально-педагогическая направленность, интеграция, профориентация, подготовка, наука.

PREPARING FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS TO WORK ON CHOOSING A PROFESSION BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH

Annotationю the article examines issues related to the preparation of students for choosing a profession with the help of the integration of «Natural science and its teaching methodology» with natural-scientific sciences on the basis of professional-pedagogical orientation.

Keywords: Vocational orientation, student, integration, career choice, preparation, science.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining bugungi bosqichi talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlash maqsadida “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonni qabul qildi[1]. Mazkur Farmon mamlakatimizda professional ta’lim tizimini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish-boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim bosqichlarini joriy etish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda bu jarayonga ish beruvchilarni jalb qilishga qaratilgan. O‘z-o‘zidan ravshanki, uzluksiz ta’lim tizimida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha pedagogik jamoalar faoliyatining samarasi ko‘p jihatdan bu ishga o‘qituvchi murabbiylar qay darajada tayyorlanganliklariga hamda mazkur ish bo‘yicha oila, mahalla, uzluksiz ta’lim tizimi muassasalari va keng jamoatchilik o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yilishiga ko‘p jihatdan bog‘liq.

Shu munosabat bilan Oliy ta’lim muassasasi “Boshlang‘ich ta’lim, tarbiya va sport” ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarni-bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasb tanlash ishiga integrativ yondashuv [4] asosida tayyorlashning mazmuni, shakl, metodlarini qaraymiz.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalarni kasb tanlash ishiga tayyorlash ta’limning kasbiy-pedagogik yo‘naltirilganlik prinsipi asosida amalga oshiriladi. “Tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi” [5] fanini o‘rganish jarayonida talabalarni kasb tanlash ishiga tayyorlash vazifasi kafedra professor-o‘qituvchisidan uning har bir mavzu va savolini boshlang‘ich ta’lim “Atrofimizdagi olam” (1-2-sinflar), “Tabiatshunoslik” (3-4-sinflar)ning mavzu va savollari bilan bog‘lab u yoki bu kasbning mehnat mazmuni, egallagan ko‘nikma va malakalari bilan kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni tanishtirib borishning mazmuni, metod va vositalari to‘g‘risida talabalarga aniq ko‘rsatmalar berib borishni taqozo etadi.

OTM professor-o‘qituvchilarining bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasb tanlash ishiga tayyorlash bo‘yicha amalga oshirilgan faoliyatini ijobiy baholash barobarida xalq xo‘jaligida mashg‘ul bo‘lgan shunday kasblar borki (”Odam va tabiat” turkumiga kirgan kasblar orasida) ularning samarali mehnat faoliyati insonning ko‘rish, eshitish, ranglarni farqlash, hid va ta’m bilish, nafas olish,asab tizimi, tayanch harakat apparati va boshqalarga bog‘liqdir.

Talabalarni kasb tanlashga tayyorlash OTM o‘quv-tarbiya jarayonining tarkibiy qismiga aylanishi uchun kafedra professor – o‘qituvchilari tuman,viloyat xududlarida joylashgan ishlab chiqarish obyektlari qaysi ommaviy ishchi kasblariga ehtiyoj sezayotganligini muntazam o‘rganib borishi hamda o‘quv rejasida ko‘zda tutilgan ilmiy-tabiiy, umumkasbiy fanlarni o‘rganish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarni mazkur kasblar bilan tanishtirishi talab etiladi. Bunda har bir fan o‘qituvchisi ta’limning politexnik prinsipi asosida fanning talabalarni kasb tanlash ishiga tayyorlash bo‘yicha potensial imkoniyati taxlil qilinadi.Ushbu maqsadda yuqorida ko‘rsatilgan fanlarning mavzu va savollari kasb tanlash nuqtayi nazaridan tahlil qilish har bir tabiiy-ilmiy, umumkasbiy fanning talabalarni kasb tanlash ishiga tayyorlashning mazmuni aniqlanadi va fanning ishchi rejasida aks ettiriladi. Misol tariqasida 1-jadvalda “Tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi” fanining rejasini

keltiramiz. Mazkur fan “Odam va tabiat“ turkumiga kiruvchi kasblarning ilmiy asosi bo‘lib[6] kafedra professor-o‘qituvchilari o‘quv-tarbiya jarayonida talabalarga mazkur kasblarning professiogrammasi asosida xalq xo‘jaligini rivojlantirishdagi roli va ahamiyati,bajaradigan ish mazmuni,egallagan mehnat ko‘nikmalari va malakalari bilan tanishtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

1-*jadval*

Mavzu va savollar	*“*Odam va Tabiat” tipi kasblari va ularnig qisqacha mazmuni
Atmosfera O‘zbekistonning qazilma boyliklari	Ona diyorimizning shaxta va karyerlaridan burg‘ulovchi stanoklar yordamida oltin,volfram,mis, temir va boshqa ma’danlarni kovlab olish (burg‘ulovchi, tog‘ kombayni mashinisti)
Gidrosfera Quruqlikda suv O‘zbekiston suv xavzalari	O‘simliklarni nobud bo‘lishini oldini olish, ulardan mo‘l-ko‘l hosil yig‘ishtirib olish uchun ularni muntazam sug‘orib turish zarurligini ko‘rsatish (Paxtakor, polizchi, g‘allakor, bo‘g‘bon, suvchi, mirob, gidrotexnik, meliorator)
Atmosfera Ob-havo va iqlim O‘zbekiston iqlimi	Fermer–dehqon xo‘jaligida parvarish qilinyotgan o‘simliklarni meyorida rivojlanishiga ta’sir qiluvchi ob-havo, iqlim omili (yorug‘lik harorat, suv, tuproq va boshqalar) ni hisobga olgan holda, yani agrotexnika tadbirlariga rioya qilgan holda mo‘l–ko‘l hosil yig‘ishtirish (kichik agronom, texnik meteriolog, o‘rmonchi, suvchi va boshqalar)
O‘simliklar dunyosi meva va urug‘	Nok, anjir, yong‘oq, tut, tok navdalarini narxish usuli bilan ko‘paytirish (usta bog‘bon ,(uzimchi), o‘rmonchi va boshqalar hamda tok, anor jiyda, tol, terak, chinor kabi daraxtlarni qalamcha usuli bilan ko‘paytirish, kurtak payvand usilidan foydalanib o‘simliklarni issiq va sovuqa chidamli kasaliklarga chidamligini oshirish
Xona o‘simliklarini vegitatif ko‘paytirish	Mehnat sharoitida havoda ortiqcha gaz, chang hosil qilinishi bilan bog‘liq kasblar uchun qulay sharoit yaratish uchun xona yoki sexda karbonat agidirid miqdorini kamaytirishga,namlikni oshirishga, chang, mikroblardan tozalashda xona o‘simliklarini qalamcha, kurtak payvandi yordamida ko‘paytirish (gulchi).
Suv o‘tlari	Suv o‘tlarini suniy ko‘paytirish orqali ulardan insonlar uchun oziq-ovqat, chorvachilikda, yem-hashak, dehqonchilikda o‘g‘it sifatida foydalanadilar. Shunigdek, xlodofora yashil suv o‘tidan gazlamalarni sifatli qog‘oz va kartonlarni bo‘yash uchun algen kislota tayyorlanadi (Biofabrika, oziq-ovqat sanoati xodimlari, to‘quvchi, bo‘yoqchi).
Hayvonot dunyosi hashorotlar sinfi	Hayvon va o‘simlik qoldiqlari bilan oziqlanadiga hashorotlar yer yuzasini ifloslanishdan saqlashi tufayli sanitarlik vazifani bajaradi. Hayotda bunday ishni shahar, tuman sanitariya –

	epedimilogik stansianar xodimlari bajaradi.
O‘simliklarning zararkunanda hashoratlari	Donli ekinlarga tushgan osiyo chigirtkasi, sabzavot va poliz ekinlariga shiralar, mevalarga olma qurti, g‘o‘za tunlama kartoshkaga kolorada qung‘iziga qarshi kurashda bio metod qo‘lash maqul. Ushbu ish O‘zbekiston respublikasi karantini va muhovaza qilish agetligini mintaqaviy bulimlari tirxogramma, tila ko‘z, brokomni o‘stiruvchi biologik labaratoriya labarantlari, fermer dehqon xo‘jaliklari ishchilari tomonidan amalga oshiriladi.
Chorvachilik	Chorvachilik mahsulotlari oziq-ovqat hamda yengil sanoatni homoshyo bilan taminlab xalqimizini farovonligiga, dasturxonimizni go‘sht, sut kabi mahsulotlari hamda xalqimizni charim, poyafzal teri buyumlariga galanteriya bo‘lgan ehtiyojlarini qondirib kelmoqda(poyafzal tikuvchi, oshpaz, oziq-ovqat mollarini sotuvchi, chorvador).

Yuqorida bayon qilinganlardan ko‘rinadiki, mazkur fan talabalarni kasb tanlash ishiga tayyorlashning muhim tarkibiy qismi ekanligini ta’kidlash barobarida qishloq xo‘jaligida mashg‘ul bo‘lgan ommaviy kasblar vakillari juda ko‘p hollarda rejimni saqlashga imkon bermaydigan,ranglarni aniq sezishni talab qiladigan, zo‘riqish va ish vaqti davomida tik turib mehnat qilish va hokazo talab qiladigan sharoitda mehnat qilishga to‘g‘ri keladigan juda ko‘plab kasblar haqida ma’lumot berish imkoniyatiga ega emas.Mazkur kamchilikni to‘ldirishda “Tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi”fanini tabiiy-ilmiy fan (Yoshlar fiziologiyasi va gigiyenasi [2], Ekologiya[9], Odam anatomiyasi [4]) larining o‘quv dasturlari mavzularining integratsiyasi” asqotadi .Quydagi 2-jadvalda ayrim mavzular misolida maskur fanlarnig intigratsiyasi keltirilgan [3].

Ayni paytda aytish joizki,mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv rejasiga kiritilgan fanlarning mazkur sohadagi imkoniyatlarini bir xil deb bo‘lmaydi.

Tabiiy-ilmiy, umumkasbiy fanlar (matematika, matematika va uni o‘qitish, mehnat, mehnat va uni o‘qitish, tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi va boshqa)larning talabalarni kasb tanlash ishiga tayyorlash bo‘yicha ishlab chiqilgan ish rejalar professor-o‘qituvchilar faoliyatlarini yo‘naltiradi hamda mazkur ishni samarali tashkil etishga ko‘maklashadi. Talabalarni kasb tanlash ishiga tayyorlash bo‘yicha professor o‘qituvchi faoliyatiga rahbarlik qiladigan rejalar qator talablar asosida ishlab chiqishni talab etadi. Jumladan, ishlab chiqilgan rejalarning maqsadga qaratilganligi; professor-o‘qituvchining o‘zi o‘qitayotgan fan bilan bog‘liq kasblari taxsil oluvchilarda barqaror qiziqish uyg‘otishga intilishi; talabalarni kasb tanlash ishiga tayyorlashning turli usul, shakl va vositalar yordamida amalga oshirilishi;taxsil oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish zarurligi va boshqalar.

Talabalarni kasb tanlash ishiga tayyorlashda integrativ yondashuvdan foydalanish u yoki bu kasb to‘g‘risida turli fanlar nuqtai nazaridan birgalikda beriladigan ma’lumotlar tahsil oluvchilarda kasb bo‘yicha yaxlit tasavvurlarni shakllantirish barobarida mazkur fanlarning jozibadorligini oshiradi.

2-*jadval*

Tabiiy fanlar	**Ekologiya**	**Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi**	**Odam anatomiyasi**
Aatmosfera.Yerni o‘rab olgan havo qatlami	Atmosfera.Atmosfera ifloslanishining sanitarik-gigiyenik…	Nafas olishning yosh xususiyatlari va gigiyenasi	Nafas a’zolarining tuzilishi
Gidrosfera.Suv,Yer osti suvlari,mineral suvlari	Suvning tabiat va jamiyat uchun ahamiyati. Chuchuk suv. Suvning ifloslanish manbalari va muammolari	Bola o‘sishida va rivojlanishida suv, va mineral tuzlar	Xazm qilish organlari tuzilishi
O‘simliklar olami… Meva va urug‘	O‘simlik resurslari, ularni muhofaza qilish.	Inson vujudiga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydigan o‘simliklar	Ichki a’zolar. Hazm qilish organlari tuzilishi. Yurak tuzilishi
O‘simlik xilma-xilligi. O‘simliklar qoplami	O‘simliklar xilma-xilligi. Atmosferada kislorodning tiklanishida o‘simliklarning roli	Nafas sistemasining vazifasi. Tashqi va ichki nafas olish	Nafas a’zolarining tuzilishi
Hayvonot olamining ayrim turlari (Qoramolchilik)	Hayvonlarning inson uchun resurs ekanligi…hayvonlarni muhofaza qilish	Ovqatlanish gigiyenasi	Hazm a’zolarining tuzilishi
Suv o‘tlaridan oziq-ovqat sifatida foydalanish	Suv resurslarining ifloslanishining oldini olish O‘zbekistonda suv havzalarining ekologik holati	Ovqatlanish gigiyenasi	Hazm qilish organlarining tuzilishi
Xashorotlar sinfi. Asalari. Hayvonot olami boyligi	Hayvonlarni muhofaza qilish yuzasidan O‘zbekistonda amalga oshirilgan ishlar	Ovqatlanish gigiyenasi	Hazm qilish organlari
O‘simliklarning zararkunanda hashorotlari	Qishloq xo‘jaligi zararkunandalariga qarshi kurashda zaxarli kimyoviy moddalar o‘rniga biologik fabrika (labaratoriya)larda trixogramma, brakon,	Salomatlik haqida tushuncha	Nafas olish a’zolarining tuzilishi

	tillako‘z va boshqalarni tayyorlab, ekin maydonlariga tarqatish		
O‘zbekiston qazilma boyliklari . O‘simlik qoplami.	Tabiiy resurslar va ulardan oqilona foydalanish	Tayanch-harakat apparatining yosh xususiyatlari va gigiyenasi	Muskullar va sezgi organlari

Shu boisdan o‘quv yili boshida umumkasbiy, tabiiy-ilmiy fanlar professor-o‘qituvchilari OTM joylashgan tuman,viloyat ishlab chiqarish korxonalarining ommaviy ishchi kasblarga bo‘lgan extiyojlarini hisobga olib borishlarini mazkur kasblar mehnat mazmunida qaysi fanlarning ilmiy asoslari yotganliklarini namoyon qilishni yillik, mavzuli va dars rejalarini tuzish talab etiladi.

Mazkur talablar asosida tuzilgan ma’ruza, seminar, amaliy mashg‘ulotlar rejalari talabalarni kasb tanlash ishiga tayyorlashning samaradorligini ta’minlashga ko‘maklashadi. Misol tariqasida “Tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi” fanining mavzu va savollarini o‘rganish jarayonida talabalarni qishloq xo‘jaligining o‘simlikshunoslik va chorvachilik tarmoqlarida mashg‘ul bo‘lgan ommaviy kasblarning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati, xalqimizning farovon hayot kechirishidagi roli, ularning mehnat mazmuni bayon qilingan kasb tanlash rejasini keltiramiz. Mazkur sharoitlarni o‘z vaqtida namoyon qilish va uni hisobga olgan holda” Tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi” fanini o‘rganish jarayonida talabalarni kasb tanlash ishiga tayyorlash mazkur fanning mavzu, savollarini tabiiy-ilmiy fanlar mavzulari bilan integratsiyalashni talab etadi. Mazkur fanlarning integratsiyasi quyidagi jadvalda keltirilgan.

3-*jadval*

Tabiatshunoslik mavzu va savollari	**“Odam va tabiat” turkum kasblari va ularni egallashga qo‘yiladigan talablar mazmuni**
Quyosh sitemasi siklik quyosh kuchayib yer yuzida magnit bo‘roni vujudga kelishi	Yer yuzasi bo‘ylab magnit bo‘roni tarqalishi natijasida turli kasb vakillarida yurak-tomir, asab sistemasining bezovtalanishi. Tibbiyot hamshirasi (kardiolog). Yurak-tomirlar, asab sistemasini bezovta qilmaydigan ishlar.
O‘zbekiston qazilma boyliklari	Shaxta va kargerlarda kon qazuvchi, burg‘ulovchi qazuvchi, sabr-bardoshli, jismoniy baquvvat, tayanch harakatlanish apparati sog‘lom; ish vaqti mobaynida tikka turib mehnat qiladi.
Gidrosfera. Quruqlikdagi suv.	Qo‘llari hamda tayanch harakatlanish apparatini kam(suv)da uzoq saqlay oladigan yoshlar sholikor, suvchi,

O‘zbekistonda suv havzalari	mirob, gidrotexnik kasblarida ishlaydilar.
O‘simliklar dunyosi. Meva va urug‘, ma’daniy o‘simliklarni ko‘paytirish. Suv o‘tlari	Paxta terish mashinasi mexanik haydovchisi-Jismoniy baquvvat va chidamli, harakatlar muvofiqlashgan bo‘lishi paxta hosilini sifatli terib olishi uchun yaxshi rivojlangan ko‘rish va eshitish sezgilariga ega bo‘lishi lozim. Polizchi ustak-kuzatuvchan,yaxshi ko‘rish xotirasiga ega, sabr toqatli, qo‘l harakatlari muvofiqlashgan va epchil bo‘lishi kerak Qishloq xo‘jalik texnikasini ta’mirlovchi slessor-kuzatuvchan yaxshi eshitish sezgilariga ega bo‘lishi, tufayli mexanizmlardagi nosozligini oldini olishi, texnikani xizmat muddatini uzaytiradi. Keng ixtisosli traktorchi mashinist-tovushning xarakteriga ko‘ra dvigatel va xizmat ko‘rsatadigan boshqa mexanizmlar holatini aniqlash uchun yetarli darajada o‘tkir ko‘zga ega bo‘lishi, ishlov berilayotgan tuproqning o‘ziga xosligini aniqlashi uchun rangni yaxshi farqlay olishi kerak. Pillakor usta-dastlabki materialni hosil bo‘lish jarayonini rangi,hidi bo‘yicha bir qarashda aniqlash uchun yaxshi ko‘rish va rangni farqlash, mo‘tadil rivojlangan xususiyatga ega bo‘lishi kerak. Uzilgan tut bargini qurtlardan o‘z vaqtida berish uchun vaqt sezgisiga ega bo‘lishi kerak. Usta-bog‘bon(uzumchi) - mehnatsevar, kuzatuvchi, jismonan baquvvat sabr-bardoshli, qatiyatli bo‘lishi barobarida yaxshi ko‘rish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.
	Avtomobil shafyori-jismoniy va ruhiy sog‘lom bo‘lishi, masofani yaxshi chamalab olishi, rang va uning turlarini farqlay olishi lozim. Ip o‘rovchi-Barqaror diqqat, chamalab olish bir qarashdan g‘altakdagi o‘ramlarning tayyorligini aniqlay olishi, qo‘l harakatlarining yaxshi muvofiqlashganligi harakatlarni tezligiga ega bo‘lishi lozim bo‘ladi. Tarovchi-ziyraklik, sinchikovlik, turli operatsiyalarni bajarishga doimiy tayyorligi serharakatlilik, yaxshi ko‘rish, qo‘l va barmoqlarning epchilligi, o‘zgarmaydigan mehnat jarayoniga bardoshlilik. To‘quvchi -iplar uzilganda reaksiyaning tezligi va tez ulash malakasi, rang, naqsh, bezak, gul hamda ishlanadigan materialning sifatini ko‘rib farqlash tezligi, chamalay olishligi, terining sezgirligi, ko‘z bilan nazoratn qilganda qo‘llarning tartibli harakat qilishi. Tikuvchi–motoristka -qo‘l va oyoqlarning yaxshi

	muvofiqlashgani harakatlari, barmoqlarni tez va yengilligi, tikish operatsiyalarining diqqat bilan juda yaxshi bajarishlik, yaxshi ko‘ra olish, qisqa masofadan chamalab olishlik. Yigiruvchi-doimiy barqaror diqqat, ish smenasi davrida xar soatda vaqtni to‘g‘ri taqsimlay olish, tez ish priyomlarini takomillashtirib bera olish qo‘llarini ochiq va tez muvofiqlashtirish, ip uzilganda va naychadan bo‘shab chiqqanda nosozlikni aniqlash uchun chiziqli chamalay olishni, yuqori teri sezgirligini talab qiladi.
Hayvonot dunyosi Hasharotlar sinfi Qoramolchilik	Veterenar -kuzatuvchi, ziyrak, qatiyatli, dadil kishi, jismonan baquvvat, chidamli, sabr bardoshli, chaqqon bo‘lishi kerak. Buzoqlarni boqib o‘stiruvchi operator buzoqlarni holatini rivojlanish darajasini tez va aniq baholash uchun yaxshi ko‘rish xotirasiga ega bo‘lishi kerak. Asalarichi -yaxshi ko‘rishi, rangni farqlashi, dastlabki mahsulotni rangi va hidini bir qarashda aniqlash uchun normal sezgiga ega bo‘lishi lozim. Chorvachilik fermalari mexanizatori -jismoniy baquvvat kuzatuvchan, diqqat e’tiborli bo‘lishi kerak. Unda harakatlar yaxshi muvofiqlashgan epchillik, texnika bilan ishlashga moyillik talab etiladi. Suv xo‘jaligi ishchisi - Baliqchi juda sog‘lom tabiatni sevadigan, tartib va saranjomli, diqqat-e’tiborli kishi bo‘lishi kerak, chunki unga yuklangan barcha topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarishi baliqlar podasining hayoti va o‘sishiga bog‘liq.

Xulosa. “Tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi” fanini “Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi”, “Ekologiya”, “Odam anotomiyasi” fanlari bilan integratsiyasi asosida talabalarni “Odam va tabiat” turkumiga kiruvchi qishloq xo‘jalik kasblari bilan tanishtirish ularni kelgusi pedagogik faoliyatlarda juda zarur bo‘lgan qishloq xo‘jalik kasblarining mazmun-mohiyati hamda mazkur kasblarning inson organizmiga qo‘yadigan talablar bilan qurollantirishga imkoniyat yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni // Xalq so‘zi gazetasi 2019-yil 6-sentabr.

2. Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi. Fan dasturi. – T.: ToshDPI, 2020. – 6 b.

3. Mavlonova R.A. va b. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Metodik qo‘llanma. – T., 2006. – 99 b.

4. “Odam anatomiyasi”. Fan dasturi. – T.: ToshDPI, 2021. – 5 b.

5. Pedagogika Ensiklopediya. II jild. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlar ilmiy nashriyoti, 2015. – 374 b.

6. “Tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi”. Fan dasturi. –T.: ToshDPI, 2021. – 12 b.

7. Shodiyev N. Qishloq xo‘jaligi ishchi kasblari professiogrammalri. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi, 1984. – 142 b.

8. Shodiyev N. Boshlang‘ich ta’limda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni kasblar olami bilan tanishtirish usullari//SamDU ilmiy axborotnomasi. 2017. № 2. – B. 140-144.

9. Ekologiya. Fan dasturi. – T.: ToshDPI, 2014. – 9 b.